



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



PROFESSIONAL TA'LIMNI  
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



# “XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KASBIY TA'LIM MUASSASALARINING YANGI QIYOFASINI YARATISH VA KADRLAR TAYYORLASHNI SIFAT BOSQICHIGA OLIB CHIQISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI” MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

Toshkent 2024



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH  
INSTITUTI**

**“XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA PROFESSIONAL  
TA’LIM MUASSASALARINING YANGI QIYOFASINI  
YARATISH VA KADRLAR TAYYORLASHNI SIFAT  
BOSQICHIGA OLIB CHIQISHNING MUAMMO VA  
YECHIMLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy–amaliy anjuman  
materiallari to‘plami**

**Сборник материалов  
международной научно-практической конференции  
«ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ СОЗДАНИЯ НОВОГО  
ИМИДЖА УЧРЕЖДЕНИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ И ПОДНЯТИЯ ПОДГОТОВКИ  
ПЕРСОНАЛА НА КАЧЕСТВЕННЫЙ УРОВЕНЬ НА  
ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА»**

**A collection of materials of the international  
scientific and practical conference program on the topic of:  
“PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR CREATING A NEW  
IMAGE OF VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS  
BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE AND RAISING  
PERSONNEL TRAINING TO A QUALITY LEVEL”**

**2024-yil 9–noyabr**

**TOSHKENT, 2024**

16. United Nations Children's Fund (UNICEF). (2019). UNICEF's engagement in health system strengthening. Retrieved from <https://www.unicef.org/media/61111/file/HSS-UNICEF-ENG.pdf>
17. Cameron, M. P., & Richardson, L. E. (2018). International student exchange in nursing education: A systematic review. *Nurse Education in Practice*, 32, 45-52. doi:10.1016/j.nepr.2018.05.001
18. Kang, H. J., & Park, M. Y. (2019). Effectiveness of government-supported nursing exchange programs: Evidence from South Korea. *Journal of Nursing Scholarship*, 51(4), 392-399. doi:10.1111/jnu.12411
19. Australian Nursing and Midwifery Accreditation Council. (2019). Standards for Nursing and Midwifery Education Programs. Retrieved from <https://www.anmac.org.au/standards-and-review/standards-nursing-and-midwifery>
20. Munoz, S. A., Curtis, K., & Isaksen, L. (2015). International collaboration in nursing education: Challenges and opportunities. *Nurse Education Today*, 35(7), 711-716. doi:10.1016/j.nedt.2015.02.017
21. Richardson, A., & Leadbetter, C. (2020). Advancing nursing education in the UK: New directions and challenges. *Journal of Health Education Research*, 35(2), 110-118. doi:10.1093/her/cyaa002
22. International Council of Nurses. (2017). Guidelines on Advanced Practice Nursing. Geneva: ICN. Retrieved from [https://www.icn.ch/system/files/documents/2018-09/ICN\\_APN%20Report\\_EN\\_WEB.pdf](https://www.icn.ch/system/files/documents/2018-09/ICN_APN%20Report_EN_WEB.pdf)

## **MTTlarda MARKAZLAR FAOLIYATINI INTEGRATSION TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O'RNI**

**O'razaliyeva Sojida Tojiboy qizi**

ChDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi

**Xojimatova Nilufar Zokirovna, Normirzayeva Malika Davron qizi, Akramova Ziyoda**

**Ulug'bek qizi**

ChDPU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachining roli haqida fikr yuritilgan. Integratsiyalashgan faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachining pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligining zarurati haqida.

**Kalit so'zlar:** Markaz, faoliyat, integratsiya, pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlik, ijodiy qobiliyat

Kun sayin yangicha tus olayotgan ilg'or jamiyatimizda puxta o'ylangan fikr, ilmiy asoslangan g'oyalar, shaxsning ma'naviy va kasbiy qobiliyati, bilimi malakasi kasbga layoqati va xatti-harakatlarini to'g'ri yo'naltirish, aqliy va intellektual salohiyatini oshirish uchun zamin yaratish, yurt ravnaqi uchun fuqorolarning kompetensiyalaridan to'g'ri va oqilona foydalanish, hayotiy istiqbollarni belgilab olish hamda ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim-tarbiyani tashkil etishga qo'yiladiga muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak va samarali natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt mobaynida muayyan nazariy-ilmiy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan kompetensiyalarni baholash pedagogdan yuksak mahorat va ta'lim muhitiga yangicha yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari – bolaning rivojlanishi uchun eng ahamiyatli hamda kattalar va tengdoshlar bilan keng nazariy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan makondir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishi uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan. Pedagog

o'zining kasbiy va shaxsiy fazilatlari orqali bolalarda rahbarlik, boshqaruvchanlik, bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak.<sup>24</sup>

Rivojlantiruvchi markazlarda tarbiyachining integratsiyalashgan faoliyatlarni olib borishi uning pedagogik mahoratiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Markazlarda rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachidan kasbiy layoqat va bilim talab etiladi. Faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, ularning shaxsiy qobiliyatlarini ham e'tiborga olishi lozim. Markazlardagi bolalarning ta'limiy faoliyati asosan o'yin shaklida olib boriladi. Har bir bolalar uchun tanlagan o'yin va usullar bolaga qiziqarli bo'lishi va qisqa muddatli bo'lishi lozim. Chunki bola diqqatini uzoq vaqt mobaynida bir narsa yoki faoliyatga qaratib tura olmaydi.

Til va nutq markazi: Bu markazda asosan bolaning nutqi va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bola bilan bu markazda asosan she'r yodlash, kitob mutoala qilish, didaktik o'yinlar o'ynash, suhbat, alifbo bilan tanishtirish hamda nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish mumkin. Bu markazda ham tarbiyachi mahoratini namoyon eta olishi lozim. Chunki shunchaki she'r yodlash bola uchun qiziqarli emas balki uni harakatli tarzda yodlatish qiziqarli bo'ladi.

Masalan:

Bog'imizda olmalar

Qip qizarib pishibdi,

Silkitibdi shamollar

Yerga tap-tap tushibdi.

Ushbu she'rni turli harakatlar yordamida yodlatish bolada nutqni o'stiradi, lug'atiga yangi so'z qo'shiladi, jismoniy faolligi oshadi.

San'at markazi: Ushbu markazda bolalar tasviriy faoliyat, applikasiya, loy ishi kabi ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishadi. Bu markazda bolaning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi, mayda matorikaga urg'u berilgan ishlar vositasida sensor rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari bolalarni yaratuvchanlikka o'rgatish mumkin.

Masalan:

Tashlandiq materiallar yoki tabiat elementlari orqali turli xildagi kompazitsiyalarni yaratish mumkin. Urug'lardan rasmlar, yong'oqlardan hayvonlar va hasharotlar, barglardan gerbariyalar va boshqa faoliyatlar.

Fan va tabiat markazi: Bu markazda bolalarda tabiatga oid bilimlarini oshirish, tabiatni asrab avaylash haqidagi tasavvurlarini uyg'otish va tabiatga oid amaliy tajribalarni amalga oshirishi mumkin.

Masalan: Suv, qum, tosh bilan bog'liq tajribalar orqali suv, qum, toshning xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari boshqa tajribalarda ham bolalarda kimyo faniga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi: Mazkur markazda bolalarning matematik bilimlari va mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga urg'u beradi hamda yasashga loyihalashtirish oid bilimlarini shakllantirish asos bo'ladi. Bundan tashqari mayda motorika orqali bolalarning sersor rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi: Markaz bolaga nima beradi? Eng avvalo bolaning nutqi va kommunikativ qobiliyatlari rivojlanadi, kattalar bilan muloqot qilishni va fikr almashishni o'rganadi, qarindosh- urug'chilikni tushunadi. Mehmond o'stlik va mehmonga borganda

---

<sup>24</sup> M.G'aniyeva. X.Mudaliyeva. Qo'qon universiteti xabarnomasi. <https://doi.org/10.54613/ku.v11i1.1.958>

o'zini tutish odobini o'rganadi, kattalar mehnati bilan tanishadi, kasblarga qiziqish uyg'onadi. Ma'lum bir kasbni tanlashning ilk bosqichlari boshlanadi. Bolaning fikrlashi va tasavvuri kengayadi.

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi ijodiy jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga hamda takomillashtirib borishga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish, integrativ jarayonlarni tashkil etish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlanish markaz faoliyatlarida bolalarga quyidagilar o'rgatiladi:

- muammolarni mustaqil eta olish;
- ijodiy, tafakkur va yaratuvchanlik imkoniyatlarini namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilishni.

Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании.: авторская версия И.Зимняя. - М.: Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов 2004. - 37 с

2. <https://www.psychologies.ru/articles/emocionalnaya-kompetentnost-kak-ponyat-i-prinyat-emocii-okruzhayushikh/>

3. N.Djamilova - Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T.,2019 й. – 13-14.

4. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika. Tafakkur bo'stoni Toshkent-2013.

## **OLIY TA'LIMDA TALABALARNI TAQDIMOT MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**Otaxanova Shoxista Shuxratjon qizi**

Namangan davlat universiteti, "Fakultetlararo chet tillar kafedrası" o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim talabalarining taqdimot mahoratini rivojlantirish usullari haqida so'z boradi. Ta'lim jarayonida taqdimot tayyorlash, namyosih etish orqali bilim, kon'ikma va malakalarni shakllantirish jarayoni samaradorligini bir muncha oshirishga erishish mumkin. Buning uchun talabalarda taqdimot tayyorlash, namoyish etish, nutq elementlaridan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

**Kalit so'zlar:** Taqdimot mahorati, Notiqlik, Nutq, tana tili(mimika, pantomimika).

Bugungi kun jamiyat a'zolarining o'zaro munosabati, bir-biri bilan o'zaro axborot, bilim, tajriba almashishi muloqot jarayonida amalga oshadi. Zamon, makon va vaqtning shiddat bilan o'zgarishi insonlar tabiatini ham o'zgartirib kelmoqda.

Zamon bilan hamnafas bo'lish zamon talabiga aylanib ulgurgan. Kelajagimiz bo'lmish yoshlarni davlatimiz rahbari har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, ular uchun yetarli shart - sharoitlar yaratib berishi tahsinga loyiq. Ularning oldiga qo'yilgan talab o'qish, o'rganish va izlanishdir. Kitob o'qish, mutolaa qilish kishini bilim saviyasini charxlaydi. Uni jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi. Kitob ko'p o'qigan odam zo'r zukko notiq bo'la oladi hamda o'zining taqdim qilish maxoratini yuksak darajada namoyon eta oladi. Insonning taqdimot mahorati yuksak darajadagi notiqlik sanati orqali shakllanadi. Notiqlik - so'z san'ati, so'z san'ati bo'lganda ham ohangdan libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so'z san'atidir. U voqea- hodisa haqida aniq-ravshan va jonli ma'lumot berish orqali tinglovchi ongiga ta'sir etishi, ularni kuldirishi, yig'latishi va xayolot olamini zabt etishi mumkin.

Taqdimot mahoratining maqsad va vazifalaridan asosiylari ham ana shunday no'noq notiqlar kamchiliklarini aniqlash va mohir notiqlar yutuqlarini kuzatish va yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat.

<b>39</b>	<b>Xakimova Farangis Abdualimovna</b> O'zbekistonda masofaviy ta'lim: imkoniyatlar va muammolar .....	110
<b>40</b>	<b>Xolmatova Salima Kuziboyevna, Boboyeva Madina Furkat qizi, Maxamadaminova, Sarvinoz Islomjon qizi, Yergasheva Nodira Ulug'bek qizi</b> Milliy va xorijiy tajribalardan foydalanib ta'lim sifatini rivojlantirish .....	112
<b>41</b>	<b>Хакимжонова Хамидахон Хакимжон қизи</b> Современные вызовы, международный опыт и потенциал развития обучения и образования взрослых в узбекистане .....	115
<b>42</b>	<b>Yusupova Gulnora Quddusovna, Xasanov Mansur Abrarovich</b> Professional ta'lim tizimida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash va dual ta'limni rivojlantirish masalalari .....	118
<b>43</b>	<b>G'aniyeva.A.Z</b> Kasbiy ta'limni rivojlantirishda xorij modellarini o'rganishning dolzarbligi .....	120
<b>44</b>	<b>Kadirova Gulnora Xasanovna, Qodirov Yahyoxon Xayot o'g'li</b> Ta'limda kollaborativ faoliyat .....	125
<b>45</b>	<b>Kadirova Gulnora Xasanovna, Qodirov Yahyoxon Xayot o'g'li</b> Ta'limda kollaborativ faoliyat .....	123
<b>46</b>	<b>Ergashev Nodir Erniyazovich</b> Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish imkoniyatlari .....	126
<b>47</b>	<b>Abdunazarov Baxodir Abduazizovich</b> Professional ta'limni raqamlashtirish muhitida o'quvchilarning axborot xavfsizligi bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish zaruruyati .....	129
	<b>2-SHO'BA: PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH VA DUAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI</b>	133
<b>48</b>	<b>Xudayberdiyev Zayniddin Yavkachevich, Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</b> Kasbiy ta'limda kredit-modulli o'qitish tizimini joriy etish zaruriyati va istiqbollari	133
<b>49</b>	<b>Уматалиева Камила Тахировна, Алишеров Камронбек Бахромович</b> Педагогические условия формирования педагогической результатности наставников дуального обучения. ....	136
<b>50</b>	<b>G'affarov Feruz Xasanovich</b> Professional ta'lim tizimida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini samarali ta'minlashda dual ta'lim portalining o'rni .....	138
<b>51</b>	<b>Avliyakov Abdurashit Karimovich</b> Dual ta'lim zamonaviy sharoitda kasbiy ta'lim mutaxassislarini tayyorlashning innovatsion texnologiyasi .....	139
<b>52</b>	<b>Бичуринa Светлана Усмановна, Кадырова Рано Мамаджановна, Васильева Евгения Вениаминовна</b> Создание оптимальных условий Для подготовки научно-педагогических кадров на качественном уровне.....	142
<b>53</b>	<b>Жданович Елена Петровна</b> Дуальное обучение и развитие диагностической компетентности техников-механиков автомобильного транспорта.....	144
<b>54</b>	<b>Косьянова Светлана Александровна</b> Современные тенденции биохимического образования в среднем профессиональном образовании .....	146
<b>55</b>	<b>Червякова Татьяна Николаевна</b> Подготовка будущего техника-технолога в области переработки полимеров...	149

<b>56</b>	<b>Стыбаева Айгуль Шилдебайкызы, Темиров Куаныш Умирзакович, Набатова Нуржан Айтуовна</b> Роль дуальной формы профессионального образования в развитии социального партнерства.....	152
<b>57</b>	<b>Abduraimova Charos Farhod qizi</b> Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib talabalarning taffakurini shakllantirish .....	154
<b>58</b>	<b>Abduraxmonova N.K</b> Ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi dual ta'limni rivojlantirish mexanizmi sifatida.....	156
<b>59</b>	<b>Barotov Fayzullo Shukurovich</b> Bo'lajak muhandislarda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasida raqamli texnologiyalarning ahamiyati .....	159
<b>60</b>	<b>Джалалов Жамалидин Музафарович</b> Формирование инновационной среды в высшей образовании .....	160
<b>61</b>	<b>Есбергенов Дарьябай Муратбаевич, Наурзалиева Эльмира Махамбетяровна</b> Интеграция науки, образования и промышленности в профессиональной подготовке: внедрение и развитие дуального образования .....	163
<b>62</b>	<b>G'afforov Feruz Hasanovich, Ne'matova Zarina Furqat qizi</b> Dual ta'limni amaliyotda qo'llash afzalliklari .....	166
<b>63</b>	<b>Gafurova Zebo Orifjonovna</b> O'zgaruvchan mehnat bozori sharoitida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish muammolari .....	168
<b>64</b>	<b>Gapparova Musavvarabegim Bektosh qizi, Gapparov Bexzod Nematillaevich</b> Professional ta'lim tizimida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash yo'llari, yechimlari va dual ta'limni rivojlantirish masalalari (jizzax viloyati misolida) .....	170
<b>65</b>	<b>Hamzayev Akbarxon Ilash o'g'li, Muxtorov Sardor</b> Tekstil mahsulotlarida quyosh energiyasini yig'ishning tahlili.....	171
<b>66</b>	<b>Kadirov Xayot Sharipovich, Yusupova Adolat Primqulovna</b> Ta'lim sifatini ta'minlashda o'qituvchi pedagoglarning o'rni .....	174
<b>67</b>	<b>Karimov Boxodir Yusufjonovich</b> Professional ta'lim jarayonida mashinasozlik fanlarini multimediya texnologiyalar asosida o'qitish imkoniyatlari .....	178
<b>68</b>	<b>Karimova Nozima Nurmuhamadovna, Omonova Sarvinoz Halim qizi</b> Dual ta'lim – bo'lajak dizaynerlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyani ta'minlovchi ta'lim sifatida .....	180
<b>69</b>	<b>Kodirov Ismoil Norkobilovich</b> Xalqaro tajribalar asosida oliygohlar ta'lim tizimida malakali muxandislar tayyorlashda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlovchi dual ta'limni tashkil etish .....	182
<b>70</b>	<b>Mahmudov Y.E, Oromova Sh.S</b> Yosh mutaxasislarni ta'limi tizimida kasbiy va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish .....	185
<b>71</b>	<b>Matmurodov Akbarjon Komiljon o'g'li</b> Maktabgacha ta'limda bolalarga miqdor va sanoqni o'rgatish yo'llari .....	188
<b>72</b>	<b>Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi</b> Professional ta'lim tizimida dual ta'limni rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari .....	191
<b>73</b>	<b>Muminova Nargiza Sabitdjanovna, Abdulazizova Madina Abduqaxxor qizi</b> Dual ta'lim tushunchasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. ....	193